



O'ZBEK TILIDA IRONIYA VA UNING SEMANTIK JIHATLAR

Murodqulova Shaxzoda Bahodirovna

Samarqand davlat pedagogika institute Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich
talabasi murodqulovashaxzoda07@gmail.com

Annotatsiya: Har bir tilning so'zlashuv jarayonida ma'no faqat bevosita emas, balki bilvosita tarzda ham ifodalanadi. Ba'zan inson fikrini oddiy so'z emas, kinoya bilan aytilgan so'z ifodalaydi. Ironiya fikrni yashirin, lekin kuchli semantik vosita orqali ifodalash san'atidir. Ironiya orqali inson o'z his-tuyg'ularini, noroziligini, hazil yoki tanqidni badiiy va madaniy shaklda yetkazadi. Ushbu maqolada ironiya va uning turlari, semantik jihatlari, kinoya, sarkazm, paradokslar, ironiyaning o'zbek tilidagi o'rni hamda ta'siri tahlil qilinadi. Bundan tashqari o'zbek asarlarida ironiyaning ishlatilishi o'rganiladi va misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Ironiya, trop, sarkazm, paradoks, kinoya, intonatsiya, kontekst, istehzo, ko'p ma'nolilik, teskari ma'no, tanqid.

Аннотация: В процессе речи каждого языка смысл выражается не только прямо, но и косвенно. Иногда самая глубокая мысль человека выражена не простым словом, а словом, сказанным с иронией. Ирония — это искусство выражения мысли посредством скрытого, но сильного смыслового средства. С помощью иронии человек передаёт свои чувства, недовольство, юмор или критику в художественно-культурной форме. В данной статье анализируются ирония и её виды, семантические аспекты, ирония, сарказм, парадоксы, роль и влияние иронии в узбекском языке. Кроме того, изучается использование иронии в узбекских произведениях и приводятся примеры.

Ключевые слова: ирония, троп, сарказм, парадокс, ирония, интонация, контекст, насмешка, двусмысленность, перевернутый смысл, критика

Abstract: In the process of speech of each language, meaning is expressed not only directly, but also indirectly. Sometimes the deepest thought of a person is expressed not by a simple word, but by a word spoken with irony. Irony is the art of expressing a thought through a hidden but powerful semantic means. Through irony, a person conveys his feelings, dissatisfaction, humor or criticism in an artistic and cultural form. This article analyzes irony and its types, semantic aspects, irony, sarcasm, paradoxes, the role and influence of irony in the Uzbek language. In addition, the use of irony in Uzbek works is studied and examples are given

Keywords: irony, trope, sarcasm, paradox, irony, intonation, context, mockery, ambiguity, inverse meaning, criticism

Ironiya so'z orqali yashirin ma'no ifodalash, kulgi va tanqidni birlashtiruvchi badiiy vositadir. Tilshunoslikda ironiyaning semantik jihatlari uning ichki ma'nosi, yashirin ma'no qatlamlari va kontekstda hosil bo'ladigan mazmuniy o'zgarishlardir. Ironiya nafaqat so'z boyligini kengaytiradigan, balki tildagi o'zgarishlarning eng murakkab va eng qiziqarli



bodisalaridan biri hisoblanadi. Ironiya orqali muallif yoki soʻzlovchi yashirin baho beradi, bu esa semantik tahlilda muhim ahamiyatga ega.

Ironiya - yunoncha soʻz boʻlib, bilmaganga olish degan maʼnoni bildiradi. Bu tropda muallif voqeani bamaylaxotir jiddiy tarzda hikoya qiladi, ammo soʻzlar oʻz maʼnosidan tashqari qarama-qarshi maʼnoda ishlatiladi¹. Oʻzbek tili tilshunosligi va adabiyotida ironiya semantik vosita sifatida koʻp qatlamli maʼno hosil qilishi bilan ajralib turadi. U soʻzning asl maʼnosini emas, unga teskari boʻlgan maʼnoni hosil qiladi, yaʼni oʻsha fikrni tanqid qiladi yoki kulguli tus beradi. Ironiyaning yana bir jihati shundan iboratki, unda intonatsiya muhim rol oʻynaydi,

Masalan: “Ha, juda ham aqlli ekansan-da!” - bu jumlada “aqlli” soʻzi ijobiy maʼnoda emas, salbiy maʼnoda qoʻllangan. Bu yerda “aqlli” soʻziga kuchliroq urgʻu berib talaffuz qilinadi.

Ironiyaning semantik jihatlari shundan iboratki, u tildagi soʻzlarning asl maʼnosini zid, ammo mantiqan bogʻliq yangi maʼno qatlamini yuzaga keltiradi. Ironiyada semantik zidlik, baholovchanlik, emotsional rang va kontekstga bogʻliqlik birgalikda ishlaydi. Ironiyaning koʻp qatlamli maʼno tizimi mavjud boʻlib:

Leksik sathda soʻzning asl maʼnosi bilan kontekstdagi maʼnosi oʻrtasida teskari aloqani yuzaga keltiradi;

Sintatik sathda gapning grammatim tuzulishi oddiy boʻlsa-da, intonatsiya orqali teskarilikni hosil qiladi;

Pragmatik sathda ironiya soʻzlovchi va tinglovchi bir-birini tushunishiga bogʻliq. Agar tinglovchi kontekstni tushunmasa, ironiyani sezmaydi va gapni toʻgʻridan-toʻgʻri maʼnoda qabul qiladi;

Konteksual semantikada ironiyada yashirin maʼno muhim oʻrin tutadi. Gapning yuzaki maʼnosi emas, balki kinoyaviy maʼnosi ustun boʻladi.

Ironiyani tilning barcha tasviriy vositalariga tenglashtirib boʻlmaydi: “Tilning tasviriy vositalari soʻz qoʻllashning hamma obrazli koʻrinishlari, soʻz birikmalari va tovushlarni tasviriy qoʻllashga nisbatan aytib, koʻchma turlarning hamma koʻrinishi umumlashtirilib, “troplar” atamasi ostiga birlashtiriladi. Tasviriy vositalar tasvirlash uchun xizmat qiladi. Koʻchma maʼni vositalarga metofara, metonemiya, giperbola, litota, ironiya, parafaza va boshqalarning soʻz va iboralar yordamida qoʻllaniluvchi usullari kiradi”².

Yozish kontekstida ironiya turli yoʻllar bilan oʻzini namoyon qilishi mumkin. Masalan: Sarkazm (yunoncha soʻz boʻlib, “qiynash, ozor berish”) - bunda tasvirlanayotgan narsa yoki murojaat qilinayotgan kishidan muallifning ustunlik xususiyatiga asoslanib, achchiq, zaharxanada, istehzoli taʼna, piching bn gapiriladi³.

Gonzo jurnalistikasi XX asrning 60-70-yillarida Hunter S. Thompson tomonidan ommalashgan subyektiv jurnalistika uslubi hisoblanib, subyektivlik va hissiy yondashuv yaʼni jurnalist oʻz hikoyasining markazida boʻlib, shaxsiy tajriba orqali voqeani hikoya qiladi (John, 2020). Reallikni buzib koʻrsatishda yolgʻonyoki boʻrttirilgan voqealar orqali chuqurroq haqiqatga eʼtibor qaratilishga erishgan. Bu yoʻnalish oʻzida eksperimental

¹ Sultonsaidova, S. Sharipov, Oʻ. Oʻzbek tilistilistikasi. – Toshkent – 2009

² Tursunova Sojidaxon, ironiyaning turlari hamda ironic mazmun ifodalash usullari, Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan, 2025.

³ Sultonsaidova, S. Sharipov, Oʻ. Oʻzbek tilistilistikasi. – Toshkent – 2009



uslubdan foydalanib, matnda badiiy usullar va ichki monologlardan, sarkazmdan keng foydalandi⁴.

Kinoya esa so'zlovchining niyatini yashirin tarzda, lekin aniq ifoda etishga xizmat qiladi va kontekstda mimika, ohang yoki vaziyat orqali anglatiladi. "Barakalla, ishni chiroyli qilib buzibsan!" - tarzida.

Paradokslar - qarama-qarshi fikrlar uyg'unligi, ya'ni mantiqan to'g'riga o'xshmaydi lekin chuqur o'ylab qaralsa, unda haqiqat yotadigan fikrlar, Abdulla Qahhor asarlarida "jiddiy kulgi", "achchiq haqiqat", "kuldirib o'ylantiruvchi" holatlar paradoks ifodalarining namunalaridandir. Masalan: "O'g'ri" hikoyasida "o'g'ri - o'g'ri emas", ya'ni o'g'irlik qilgan odam aslida o'g'ri emas, ba'zan jamiyat shunday ahvoldaki, inson jinoyatga qo'l urishga majbur bo'ladi, biroq uning maqsadi yomonlik emas - yashash uchun kurash.

Ironiya so'zning semantik qatlamlarini chuqurlashtiradi, ko'p ma'nolilik xususiyatini kuchaytiradi.

Ironiya - badiiy asarlardagi uslubiy vosita - ikki ma'noda qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'z yoki gaplarni qo'llash bilan ularni asl ma'nosiga teskari, hatto uni inkor etuvchi ma'nosi orqali kinoya, qochiriq, kesatiq, piching, mazax ma'nolarini ifodalash⁵.

O'zbek badiiy adabiyotida ironiyadan mohirona foydalanuvchi yozuvchilar kam emas, ulardan biri O'tkir Hoshimov - ko'pincha ironiyadan ijtimoiy muammolarni tanqid qilish, insoniy kamchiliklarni ko'rsatish uchun ishlatadi. Masalan uning "Ikki eshik orasi" asarining nomini o'zi ironiyaga misol bo'la olishi mumkin, sababi "ikki eshik - tug'ulish va o'lim eshiklari, hayot shu ikki eshik orasidagi yo'l", asar qahramonlari shu ikki eshik orasidan tinchlik va baxt izlaydilar...

Ironiya faqat istehzoli kulgi yuzaga keltiruvchi vosita bo'lib qolmasdan, katta bir ijtimoiy mazmun kasb etishi mumkin. Uning badiiy uslubdagi xizmati shundan iboratki, fikr vulgar, qo'pol holda emas, balki bir muncha silliq, pardali, madaniy libos kiydirgan holda bayon qilinadi⁶.

Xulosa qilib aytganda Ironiya o'zbek tili va adabiyotining eng nozik semantik qatlamlaridan biridir. U orqali inson o'z fikrini bevosita emas, balki teskari ma'noda, ammo yanada kuchli ifoda etadi. Ironiya tildagi ma'nolar o'zgarishining, fikrning ko'p qavatli bo'lishining yorqin isbotidir. O'zbek yozuvchilari — Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, O'tkir Hoshimov kabi ijodkorlar ironiyani xalqona hazil, tanqid va falsafiy mazmun bilan uyg'unlashtirib, uni milliy ifoda darajasiga ko'targanlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. Anor. – Toshkent: G'afurG'ulom nashriyoti, 2012. 76-bet
2. International scientific journal of media and communications in Central Asia. Jadidlar va Behbudiymerosini o'rganishdagi yangi yondashuvlar. – Toshkent, 2025. 203-bet
3. Sultonsaidova, S. Sharipov, O'. O'zbek tilististikasi. – Toshkent – 2009.

⁴ International scientific journal of media and communications in Central Asia. Jadidlar va Behbudiymerosini o'rganishdagi yangi yondashuvlar. – Toshkent, 2025.

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-tom-2006, 225-bet

⁶ Tursunova Sojidxon, ironiyaning turlari hamda ironic mazmun ifodalash usullari, Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan, 2025.



4. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-tom. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. 225-
bet
5. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.